



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISH VA BANDLIK VAZIRLIGI
BUYRUQ

2023-yil “23” iyun

108-son

Toshkent shahri

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati hamda madaniyati darajasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida” gi Qonuni ijrosini ta‘minlash, vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, xodimlar orasida korrupsiyaga qarshi kurashish madaniyati darajasini yanada kuchaytirish, amalga oshirilayotgan ishlar maqsadlilik va samaradorligini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni har qanday ko‘rinishlarini oldini olish maqsadida,

BUYURAMAN:

1. 2023-yil 1-iyundan boshlab:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmalari, tuman (shahar) Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi boshliqlari, tasarrufiy tashkilot rahbarlari:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha belgilangan vazifalarni to‘laqonli ijrosini ta‘minlash hamda kunlik nazoratni kuchaytirish choralari ko‘rsin;

aniqlangan korrupsion holatlar yuzasidan vazirlik mas‘ul xodimlariga vaqtida axborot berish va doimiy profilaktika ishlarini olib borsin;

korrupsiyaga muhosasiz munosabatni shakllantirish yuzasidan o‘zining quyi tizim xodimlariga har oyda kamida bir marotaba targ‘ibot va tashviqot ishlarini olib borsin;

tuman (shahar) kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limlari, tasarrufiy tashkilotlar rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha mas‘ul hisoblanishi belgilansin;

tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari xodimlari tomonidan korrupsion jinoyatlar sodir etilgan hollarda tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limlari boshliqlarining lavozimiga loyiqligi masalasi ko'rib chiqilishi, hududiy bosh boshqarmalar rahbarlari esa intizomiy jazo chorasi qo'llanilishi haqida ogohlantirilsin.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'limi (D.Temirov) Ichki audit bo'limi (A.Toshmatov) joylarda korrupsion holatlarni aniqlash va oldini olish maqsadida har chorakda anonim so'rovnomalar o'tkazsin hamda natijalari bo'yicha rahbariyatga axborot kiritib borsin.

3. 2023-yildan boshlab tashabbuskorlik va xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarganligi uchun:

kambag'allikni qisqartirish va bandlik organlari rahbarlari hamda Davlat mehnat inspeksiyasi xodimlari har oyda qo'llangan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha undirilgan jarimalar summasining 10 foizi miqdorda, biroq mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 35,15 baravaridan ko'p bo'lmagan miqdorda mukofotlab borilsin;

Davlat mehnat inspeksiyasi xodimlariga har oyda qo'llangan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha undirilgan jarimalar summasining 10 foizi, biroq lavozim maoshining ikki hissasi miqdoridan ko'p bo'lmagan miqdorda shaxsiy ustamalar tayinlansin.

Bunda, mazkur bandning ikkinchi xatboshisiga asosan kambag'allikni qisqartirish va bandlik organlari rahbarlariga beriladigan mukofot pullari undirilgan jarimalar summasining 1 (bir) foizidan oshmasligi lozim.

4. Moliya iqtisod boshqarmasi (T. Xayitov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarma boshliqlari Davlat mehnat inspeksiyasi xodimlari har oyda qo'llangan ma'muriy huquqbuzarliklar bo'yicha undirilgan jarimalar summasining Mehnatni rag'batlantirish jamg'armasiga quyidagicha taqsimlash vazifasi yuklatilsin.

Jumladan:

20 (yigirma) foizi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi markaziy apparati Jamg'arma respublika qismining tegishli shaxsiy hisobvarag'iga;

10 (o'n) foizi jarima undirgan Davlat mehnat nazorati inspektoriga;

70 (etmish) foizi Hududiy bandlik organlari Jamg'armasining tegishli shaxsiy hisobvarag'iga qayta taqsimlash uchun o'tkaziladi.

5. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazir o‘rinbosari J.Abruev hamda Davlat mehnat inspeksiyasi boshlig‘i Q.Odinaev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



B.Musaev

